

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
NAVOIY BO‘LIMI**

**BABAYEVA ZARIFAXON AKTAM QIZI**

**EKISH ME‘YORLARI VA URUG‘GA BIOLOGIK PREPARATLAR  
BILAN ISHLOV BERISHNI KROTALARIYA (*Crotalaria juncea* L.)NING  
DON HOSILI VA SIFATIGA TA’SIRI (Navoiy viloyati misolida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Babayeva Zarifaxon Aktam qizi**

Ekish me‘yorlari va urug‘ga biologik preparatlar bilan ishlov berishni  
krotalariya (*Crotalaria juncea* L.)ning don hosili va sifatiga ta‘siri  
(Navoiy viloyati misolida) ..... 3

**Бабаева Зарифaxon Актам кизи**

Влияние норм высева и предпосевной обработки семян биологическими  
препаратами на урожай и качество зерна кроталарии (*Crotalaria juncea* L.)  
(на примере Навоийской области)..... 21

**Babaeva Zarifakhon Aktam kizi**

The effect of sowing rates and seed treatment with biological preparations  
on the grain yield and quality of crotalaria (*Crotalaria juncea* L.)  
(a case study in Navoi region)..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 43

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
NAVOIY BO‘LIMI**

**BABAYEVA ZARIFAXON AKTAM QIZI**

**EKISH ME‘YORLARI VA URUG‘GA BIOLOGIK PREPARATLAR  
BILAN ISHLOV BERISHNI KROTALARIYA (*Crotalaria juncea* L.)NING  
DON HOSILI VA SIFATIGA TA’SIRI (Navoiy viloyati misolida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Qx1694. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Fanlar Akademiyasi Navoiy Bo'limida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samaguni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Negmatova Surayyo Teshaeвна  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Umurzakov Elmurod  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Tashpulatov Yigitali Shavkatillayevich  
biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot** O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «09» 01 soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz; Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 107 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 25 » 12 kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 12 » 12 dagi 10 -raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.X.Rizayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, q.x.f.d., professor

I.X.Amanturdiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.T.Sanayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyo bo'yicha noan'anaviy dukkakli ekinlardan krotalariya turkumi keng tarqalgan bo'lib, "tropik mamlakat Hindistonda mussongacha bo'lgan davrda krotalariya (*Crotalaria juncea* L.) dan yashil biomassa yetishtirish 22-27 t/ga ni tashkil etib, tuproq sharoitiga qarab tola hosildorligi 0,12-0,60 t/ga, urug' hosildorligi esa 10-22 s/ga gacha bo'lgan"<sup>1</sup>. Dunyo aholisini oziq-ovqat va dori-darmon, chorvani yem-xashak, yengil sanoatni tola xom-ashyosi bilan ta'minlashda krotalariya (*Crotalaria juncea*) o'simligiga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga oshib bopmoqda. Bu esa o'z navbatida *Crotalaria juncea* L. dan yuqori va sifatli urug' hosili etishtirishni ta'minlaydigan agrotexnologiyalar ishlab chiqarishni taqazo etadi.

Dunyoda bugungi kunda suv tanqisligi, global iqlim o'zgarishi sharoitida aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish, tuproq xossalarini yaxshilash, sifatli tola yetishtirish va yuqori oziqaviy qiymatga ega yem-xashak ekin turlarini yaratish va parvarishlash bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Shunday ekinlardan biri – noan'anaviy dukkakli don ekini *Crotalaria juncea* L. turi. hisoblanib, uni parvarishlash, yangi navlarini yaratish va urug'chiligi bo'yicha keng ko'lamda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida ham krotalariyani maqbul ekish me'yorlarida biologik preparatlar qo'llab yuqori va sifatli don hosili yetishtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar o'tkazish muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamiz sharoitida chorvani to'yimli ozuqa bilan ta'minlash, sifatli tola yetishtirish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirishda noan'anaviy dukkakli don ekin turlarini introduksiya qilish, seleksiyasi va urug'chiligini tashkil etish, parvarishlash agrotexnikasini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup> farmonida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi PQ-4243-son "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorining 9-bandida ozuqabop ekinlarning yangi navlari va duragaylarini yaratish, turli tuproq sharoitlariga mos yuqori oqsilli va noan'anaviy ozuqabop ekinlarni iqlimlashtirish, seleksiya va urug'chilik ishlarini olib borish kabi qator vazifalar belgilab qo'yilgan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup>gi, 2024-yil 13-fevraldagi PQ-71-son "Qishloq

<sup>1</sup> <https://zelenypodokonnik.ru/bobovye/502-krotalariya>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup>gi PF-5853-sonli farmoni.

xo‘jaligi yerlari degradasiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-apreldagi 201-son “Eksportga mo‘ljallangan va iste‘mol maqsadlarida undiriladigan don, dukkakli hamda moyli ekinlar urug‘larini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiya rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Krotalariya (*Crotalaria juncea L.*) o‘simligini biologiyasi, tola va farmakologiya xususiyatlarini o‘rganish, parvarishlash agrotexnologiyasi, seleksiya va urug‘chiligi bo‘yicha xorijda M.Emillie, B.Chaudhary, V.Heuzé, D.Reeves, H.Chouhan, K.Harikumar, B.Niveditha, Al-Snafi, C.Cherr, S.Scholberglar va respublikamiz sharoitida parvarishlash agrotexnologiyasi, seleksiyasi va urug‘chiligi bo‘yicha S.Negmatova, B.Xalikov, M.Nurullayeva, G‘.Yoqubov, B.Amanturdiyev, X.Berdiqulov, D.Xoliqova, L.Ortiqovalar hamda ekinlarga biologik preparatlarni qo‘llash bo‘yicha Z.Axmedova, S.Rashidova, G.Djumaniyazova, A.Iminov va xorijda H.Zahran, K.Bhuvaneshwari, A.Kumar, P. du Jardin kabi olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilib ijobiy natijalarga erishilgan.

Biroq, krotalariyaning “Mo‘jiza-73” navini Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida parvarishlashda ekish oldi urug‘larga biologik preparatlar bilan ishlov berish va ekish me‘yorini o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, dukkaklar shakllanishi, don hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2023-yil 25-yanvardagi № 2-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Navoiy viloyati sharoitida noan‘anaviy ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish” (2023-2025 yy.) hamda ALM-202403110241 sonli “Orol bo‘yi hududlariga mos qurg‘oqchilik va tuproq sho‘rlanishiga chidamli, ozuqabop yem-xashak ekin-krotalyariya (*Crotalaria juncea L.*) ni yetishtirish agrotexnologiyasi elementlarini ishlab chiqish” (Mo‘ynoq tumani tuproq-iqlim sharoitida) mavzusidagi amaliy loyihasi (2024-2026 yy.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida asosiy ekin krotalariya (*Crotalaria juncea L.*) o‘simligidan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishni ta‘minlaydigan maqbul biologik preparatlarni qo‘llash va ekish me‘yorlarini ilmiy asoslagan holda ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

tuproqning agrokimyoviy va mikrobiologik faoliyatiga urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini ta'sirini aniqlash;

urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini krotalariya o'simligi urug'ining unuvchanligi, o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlash;

krotalariyaning barg yuzasi, quruq massasi, fotosintez so'f mahsuldorligiga urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini ta'sirini o'rganish;

urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini krotalariya o'suv davri davomiyligi va umumiy foydali haroratga ta'sirini o'rganish;

krotalariyada dukkaklar shakllanishi hamda don hosildorligiga urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini ta'siri aniqlash;

krotalariya o'simligi ildizida tukanaklar shakllanishiga va donning sifat ko'rsatkichlariga urug'larga ekish oldi biologik preparatlarni qo'llash hamda ekish me'yorlarini ta'sirini aniqlash;

o'rganilgan agrotexnologiyaning krotalariya don hosili yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Navoiy viloyatining och tusli bo'z tuproqlar, *Crotalaria juncea* L. turining "Mo'jiza-73" navi, "Microzyme-1" va "Mikroo'stirgich" biologik preparatlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib tuproq xossalari, urug'ning dala unuvchanligi, o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, bargdagi xlorofill miqdori, o'suv davri davomiyligi, dukkaklar shakllanishi, krotalariya don hosili hamda donning biokimyoviy tarkibi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot ishlarida laboratoriya va dala tajribalarida olib borilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchovlar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "Noan'anaviy dukkakli ekinlarda dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "Krotalariya (*Crotalaria juncea* L.) o'simligida dala tajribalarini o'tkazish uslublari", tuproqning agrokimyoviy xossalari "Методы агрохимических анализов почв и растений", tuproqning mikrobiologik xossalari "Методы почвенной микробиологии и биохимии" qo'llanmalari asosida olib borilgan, shuningdek olingan natijalar B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" uslubiyoti bo'yicha Microsoft Excel dasturi yordami asosida matematik-statistik tahlil qilingan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** qo'yidagilardan iborat:

ilk bor Navoiy viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida asosiy ekin sifatida krotalariya (*Crotalaria juncea* L.) o'simligini parvarishlashda yuqori don hosili yetishtirishni ta'minlaydigan maqbul biologik preparat turi (Mikroo'stirgich) va ekish me'yori (12 kg\ga) aniqlangan;

krotalariya urug'larini dala sharoitida unuvchanligi o'simlik urug'iga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan va gektariga 12 kg me'yorda ekilganda yuqori (95 %) bo'lib, ekish me'yorini gektariga 4,0 kg ga kamayishi

bilan unuvchanlik 1,5 - 1,6 % ga va ekish me'yorini 4,0 kg/ga oshishi bilan 0,9 – 1,5 % ga kam bo'lishi aniqlangan;

o'simlik urug'iga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan va gektariga 12,0 kg me'yorda ekilganda yon shoxlari va barglari ko'pligi hisobiga barg yuzasi, quruq massa miqdori, fotosintez sof mahsuldorligini oshishi va urug'larga biologik preparati qo'llanmaganda nisbatan barg soni - 41 dona; barg yuzasi – 1202,5 sm<sup>2</sup>/o's.; quruq massa miqdori – 4,7 g.ga ortiq bo'lganligi aniqlangan;

o'simlik urug'iga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan va gektariga 8,0 kg me'yorda ekilganda o'suv davri davomiyligi 176 kun, foydali harorat yig'indisi 2499<sup>0</sup>C bo'lib, ekish me'yorini oshishi bilan donni to'liq pishishi 4-8 kunga kechikishi hamda 42-113<sup>0</sup>C miqdorida qo'shimcha foydali harorat talab qilganligi aniqlangan;

o'simlik urug'iga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan va gektariga 12,0 kg me'yorda ekilganda uch yilda o'rtacha eng yuqori 19,0 s/ga don hosili olingan bo'lib, biologik preparat qo'llanmaganga nisbatan 5,3 s/ga va ekish me'yoriga nisbatan 3,8 s/ga qo'shimcha hosil olinganligi hamda don tarkibidagi azot va oqsil miqdori ekish me'yori oshishi bilan 0,52; 0,9 % gacha kamayganligi, ekish oldi urug'larga biologik preparatlar bilan ishlov berilganda 0,50; 0,8 % ga yuqori bo'lganligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** Navoiy viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida noan'anaviy dukkakli don ekini krotalariya o'simligini asosiy ekinda don yetishtirishda biologik preparatlar qo'llash hamda ekish me'yorlari ishlab chiqilgan.

Krotalariya urug'lariga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biopreparatlarni qo'llab, asosiy ekin sifatida gektariga 12,0 kg me'yorida ekilganda tuproq xossalariga ijobiy ta'sir etib, urug' unuvchanligi (95 %), bargdagi xlorofill miqdori (066,7 SPAD unit), dukkaklar shakllanishi (53 dona), don hosili (19,0 s/ga) va rentabellik darajasi (107,3 %) yuqori bo'lishini ta'minlab, qo'shimcha daromad olishga erishilgan.

Krotalariya urug'iga ekish oldi "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan va gektariga 8,0 kg me'yorda ekilganda don tarkibida oqsil miqdori - 38,3 %, azot miqdori 7,25 % va moydorligi 3,50 %, 1000 dona don og'irligi 38,2 g, 16 kg/ga ekilganda ildizidagi tuganaklar og'irligi 229,6 kg/ga.ni tashkil etganligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar umum e'tirof etilgan uslubiy qo'llanmalarga muvofiq o'tkazilganligi, olingan ma'lumotlarga matematik statistik ishlov berilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalarning asoslanganligi, ilmiy va amaliy natijalar aprobasiyadan o'tkazilganligi, tajriba natijalari amaliyotda joriy etilganligi, tavsiyanoma chop etilganligi, tadqiqotlar natijalarining Xalqaro va Respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar qilinganligi hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda maqolalar chop etilganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida urug‘larga ekish oldi biologik preparatlarni qo‘llash hamda ekish me‘yorlarida o‘simlik urug‘ining unuvchanligi, o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik faoliyatining jadallashishi, dukkaklar shakllanishi, ildizlaridagi tuganaklar soni, 1000 dona don og‘irligi, don hosili hamda uning sifat ko‘rsatkichlari ortganligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida asosiy ekinda ekish oldi urug‘larga biologik preparatlar bilan ishlov berish va maqbul ekish me‘yorlari qo‘llashning krotalariya o‘simligidan yuqori va sifatli don hosili yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu agrotexnologiya Navoiy viloyati fermer xo‘jaliklariga joriy etilishi orqali yuqori don hosili va iqtisodiy samaradorlikni oshganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida krotalariyani asosiy ekin sifatida parvarishlashda urug‘larga ekish oldi biologik preparatlar qo‘llash va ekish me‘yorlarining o‘simlikni o‘sishi, rivojlanishi, don hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlariga ta‘siri bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Krotalariya urug‘lariga ekish oldi biologik preparatlar bilan ishlov berish hamda maqbul ekish me‘yorlari bo‘yicha “Navoiy viloyati tuproq-iqlim sharoitida krotalariya (*Crotalaria juncea* L.) dan mo‘l va sifatli don hosili yetishtirish bo‘yicha tavsiyanoma” ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 11-noyabr № 05/05-04-752-son ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma dukkakli don ekinlari yetishtiriladigan fermer xo‘jaliklari, chorvachilik klasterlari tomonidan qo‘llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

krotalariyadan don hosili yetishtirishda urug‘larga ekish oldi ivitish yoki namlash orqali Mikroo‘stirgich biologik preparati 1 litr biopreparat 300 litr suvga aralastirilib krotalariya urug‘lariga ishlov berilgan holda Navoiy viloyatining Qiziltepa (1,0 ga), Navbahor (1,2 ga) va Karmana (1,0 ga) tumanlarida, jami 3,2 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabr № 05/05-04-752-son ma‘lumotnomasi). Natijada, krotalariya urug‘iga biologik preparat qo‘llanmaganga nisbatan dala unuvchanligi 6,8-8,0 %, ko‘chat saqlanuvchanligi 1,5-2,3 %, dukkaklar soni 3-9 dona, tuganaklar miqdori 20-22 donaga oshishiga erishilgan;

och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida krotalariya urug‘lariga ekish oldi “Mikroo‘stirgich” biologik preparati bilan 12 ml preparatga 36 litr suv qo‘shib urug‘ga ishlov berish va gektariga 12,0 kg me‘yorda ekish texnologiyasi Navoiy viloyatining Qiziltepa, Navbahor va Karmana tumanlarida, jami 3,2 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 11-noyabr № 05/05-04-752-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, krotalariya urug‘lariga ekish oldi “Mikroo‘stirgich” biologik preparati bilan ishlov berilgan va gektariga 12,0 kg me‘yorda ekilganda gektaridan 17,3-18,4 s/ga don hosili olinib, yuqori rentabellikka (88,7-100,7 %) erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari har yili Fanlar Akademiyasi Navoiy Bo‘limi va PSUEAITI olimlari ishtirokidagi maxsus

aprobasiya komissiyalari tomonidan ijobiy baholanib, dissertasiya ishining asosiy ilmiy natijalari respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan. Hisobotlar Fanlar Akademiyasi Navoiy bo‘limining uslubiy va ilmiy kengashlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, dissertasiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 tasi mahalliy va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan. Shuningdek, 3 ta respublika, 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, shuningdek respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi va aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi, tartibi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Krotalariya (Crotalaria juncea L.) ning ahamiyati hamda dukkakli ekinlar parvarishida biologik preparatlarni samaradorligi borasidagi mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida xorijiy va mahalliy olimlarning olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, yangi noan‘anaviy dukkakli ekin krotalariya turkumiga mansub o‘simliklarni qishloq va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, parvarishlash agrotexnologiyalari bo‘yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, dukkakli-don va boshqa ekinlarni urug‘iga hamda o‘suv davrida turli biologik preparatlar, stimulyatorlar bilan ishlov berishni ekinlarni o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan natijalar tahlili hamda sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish sharoitlari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari, yillik ob-havo ma‘lumotlari, tadqiqot uslubiyoti va tajriba tizimi, o‘rganilgan o‘simlikning tavsifi va tajribada o‘tkazilgan agrotexnik tadbirlar bo‘yicha batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Dala tajribasi Navoiy viloyati Karmana tumaniga qarashli och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida 2023-2025 yillarda o‘tkazilgan. Tadqiqotda tajriba tizimi 9 ta variantdan iborat bo‘lib, 3 xil ekish me‘yori gektarida 8,0; 12,0; 16,0 kg hamda krotalariya urug‘i ekish oldi 2 xil (“Microzyme -1” va “Mikroo‘stirgich”) biologik preparatlar bilan ishlov berilgan variantlarda olib borilgan.

Tajriba dala tuprog'i och tusli bo'z tuproq bo'lib, tuproqning 0-30 sm qatlamida oziqa unsurlarining umumiy shakllaridan gumus miqdori mos ravishda 0,910-0,922-0,902 %, azot miqdori 0,081-0,086-0,080 %, fosfor miqdori 0,180-0,188-0,182 %, oziqa unsurlarining harakatchan shakllaridan nitrat 12,80-13,10-12,65 mg/kg, fosfor 23,22-23,70-22,87 mg/kg, almashinuvchi kaliy 175-187-172 mg/kg ni tashkil etganligi qayd etilgan bo'lsa, tuproqning 30-50 sm qatlamida gumus miqdori 0,752-0,755-0,744 %, umumiy shakllaridan azot 0,065-0,062-0,052 %, fosfor 0,150-0,152-0,149 %, harakatchan shakllaridan nitrat 7,10-7,30-7,05 mg/kg, fosfor 15,60-15,90-15,10 mg/kg, almashinuvchi kaliy 170-166-160 mg/kg ni tashkil etib, oziqa elementlari bilan ta'minlanish darajasi aniqlanganida nitrat va fosfor bilan kam darajada, kaliy bilan o'rta darajada ta'minlanganligi aniqlangan.

O'simlikni o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ob-havo sharoitlari ya'ni, yog'ingarchilik miqdori, havo harorati va tuproq muhiti bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Krotalariya asosiy ekin sifatida Navoiy viloyati sharoitida aprel oyining oxirgi o'n kunligida ekilgan bo'lib, tajriba o'tkazilgan yillarda aprel oyining oxirgi o'n kunligida o'rtacha havo harorati 17,6 -19,2<sup>0</sup>C bo'lib, maksimal harorati 26,0-28<sup>0</sup>C; minimal harorati 13,0-14<sup>0</sup>C; tuproqning yuza qatlamidagi minimal harorat 11,0-12<sup>0</sup>C hamda yog'ingarchilikni bo'lmaganligi urug'ni ekish uchun maqbul kun bo'lganligi qayd etilgan.


Dissertasiyaning **“Ekish me'yorlari va biologik preparatlarni tuproqning agrokimyoviy va mikrobiologik faoliyatiga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida turli ekish me'yori va biologik preparatlarni tuproqning agrokimyoviy va mikrobiologik faoliyatiga ta'siri bayon qilingan. Navoiy viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida noan'anaviy dukkakli ekin - krotalariyani parvarishlash tuproq xossalariga ijobiy ta'sir etib, ekish me'yori oshishi bilan o'simlikni oziqa moddalardan foydalanishi ham oshib borgan. Masalan, krotalariya gektariga 8,0 kg me'yorda ekilganda 0-30 sm tuproq qatlamida gumus miqdori 0,8806-0,8803 %; gektariga 12,0 kg ekilgan variantlarda 0,8775-0,8770 %; gektariga 16,0 kg ekilgan variantlarda 0,8759-0,8753 % bo'lib, ekish me'yori oshishi bilan gumusdan foydalanishi 0,0031-0,0053 % gacha oshib borganligi kuzatilgan. Amal davri oxiriga kelib, oziqa moddalarning harakatchan shakllari bo'yicha olingan ma'lumotlarga qaraganda tuproqning haydov qatlamida nitratli azot miqdori 14,47-15,37 mg/kg ni, haydov osti qatlamida esa 7,665-7,718 mg/kg oralig'ida bo'lib, mavsum boshiga nisbatan haydov qatlamlarida 1,37-2,27 mg/kg va haydov osti qatlamda 0,365-0,418 mg/kg ga ko'payganligi kuzatilgan. Harakatchan fosfor miqdori tegishlicha 24,88-25,17 mg/kg va 16,29-16,69 mg/kg oralig'ida bo'lganligi aniqlangan bo'lsa, almashinuvchi kaliy miqdori esa tuproqning 0-30 sm qatlamida 194,0-197,2 mg/kg ni, 30-50 sm qatlamida esa 171,9-174,5 mg/kg bo'lib, mavsum boshiga nisbatan harakatchan fosfor 1,18-1,47 mg/kg va almashinuvchi kaliy esa 7,0-10,2 mg/kg ga ko'paygan.

Krotalariya urug'lariga ekishdan oldin biologik preparatlar bilan ishlov berish hamda ekish me'yorini oshirish tuproq namunalarda asosiy mikrobiologik guruhlar miqdorini amal davri oxirida amal davri boshiga nisbatan bir-ikki tartib miqdorda ko'payishiga olib kelgan. Dastlabki tuproq namunalarda azotafiksator

mikroorganizmlar guruhi uchramagan. Amal davri oxirida esa  $1 \times 10^3 - 6 \times 10^5$  ga teng bo‘lib, ekish me‘yori oshib borishi bilan kamayib borganligi hamda biologik preparat qo‘llanganda variantlarda tuganak bakteriyalarni ko‘proq hosil bo‘lishi hisobiga nazorat variantiga nisbatan 1-2 tartibda ortiq bo‘lib, maqbul me‘yorga yaqinroq natijalar olingan.

Dissertasiyaning **“Krotalariyaning o‘sishi, rivojlanishi, don hosildorligiga ekish me‘yorlari va biologik preparatlarni ta’siri”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan yillarda urug‘larga ekish oldi biologik preparatlar qo‘llash hamda ekish me‘yorlarini urug‘ni unib chiqishi va ko‘chat qalinligiga, o‘sishi va rivojlanishiga, fotosintetik faoliyatiga, amal davri davomiyligiga, barglardagi xlorofill miqdoriga, don hosildorligiga, ildizida hosil bo‘lgan tuganaklar miqdoriga, dukkaklaridagi don soni va 1000 dona don og‘irligiga, donning biokimyoviy tarkibiga ta’siri haqida bayon qilingan.

Navoiy viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida krotalariya urug‘iga ekish oldi “Mikroo‘stirgich” biologik preparati bilan ishlov berib, gektariga 12,0 kg me‘yorda ekilganda dala unuvchanligi 93,8-95,0 % bo‘lib, urug‘ga ishlov berilmaganga nisbatan 6,8-8,0 % gacha yuqori bo‘lgan. Shuningdek, “Mikroo‘stirgich” biologik prereparati qo‘llanganda “Microzyme - 1” biologik preparatiga qaraganda unuvchanligi 3,2 % yuqori bo‘lib, unuvchanlik va ko‘chat qalinligini yuqori bo‘lishini ta’minlagan.




**1-rasm. Krotalariya poya balandligiga ekish me‘yorlari va biologik preparatlar qo‘llashning ta’siri**

O‘simliklarning poya balandligiga tuproq, iqlim, o‘g‘it, suv kabi bir qancha omillar qatori agrotexnik tadbirlarning ayrim elementlari ya’ni urug‘ning ekish muddati va me‘yorlari, turli biologik preparatlarni qo‘llash ham o‘z ta’sirini

ko'rsatgan. Krotalariyaning poya balandligi 5-6 chinbarg fazasida 9,0-13,2 sm, g'unchalash fazasida 54,5-70,5 sm, gullash fazasida 87,0-107,4 sm, dukkaklash fazasida 135,0 – 185,0 sm, pishish fazasida 180,0-245,0 sm bo'lib, fazalarga mos holda ekish me'yori oshishi 4,2; 16,0; 20,4; 50,0; 65,0 sm gacha va urug'larga ekish oldi biologik preparatlar bilan ishlov berish 0,8-1,0; 3,5-7,0; 5,4-8,8; 12,0-25,0; 37,0-48,0 sm gacha poya balandligini oshishiga olib kelgan (1-rasmga qarang).

Krotalariyani o'sishi va rivojlanishida yon shoxlarini ham ahamiyati kattadir. Dukkaklash fazasida bir tup o'simlikda 4-14 dona yon shoxlari bo'lib, ekish me'yori oshib borishi bilan yon shoxlari kamayib borishi kuzatilgan. Ya'ni, krotalariya urug'i gektariga 8,0 kg me'yorda ekilganda yon shoxlari 8-14 dona, ekish me'yori 12,0 kg/ga bo'lganda 7-12 dona va ekish me'yori 16,0 kg/ga bo'lganda esa 4-7 dona bo'lib, ekish me'yorini 4-8 kg/ga oshishi bilan yon shoxlar soni 2-7 donagacha kamayib borgan. Krotalariya urug'lariga ekish oldi biologik preparatlar qo'llanganda yon shoxlar soni 2-6 donaga, "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan variantda "Microzyme-1" biologik preparati qo'llangan variantga nisbatan esa 1-2 dona yuqori bo'lgan.



**2-rasm. Ekish me'yori va biologik preparatlar qo'llashni foydali haroratlar yig'indisiga ta'siri, 2024 yil.**

Krotalariya amal davri davomida foydalangan foydali haroratlar yig'indisi ham o'rganilganda, variantlar bo'yicha 2499-2726<sup>0</sup>C foydali haroratdan foydalanib, krotalariya 8,0 kg/ga me'yorda ekilganda foydali harorat yig'indisi 2613-2499<sup>0</sup>C bo'lsa, ekish me'yori 12 kg/ga bo'lganda 2655-2542<sup>0</sup>C, ekish me'yori 16 kg/ga bo'lganda esa 2726-2584<sup>0</sup>C bo'lib, ekish me'yori oshib borishi

bilan foydali haroratlar yig'indisi 42-113<sup>0</sup>C gacha oshib borgan. Urug'lar ekish oldi turli biologik preparatlar bilan ishlanganda foydali haroratlar yig'indisi 2613-2499<sup>0</sup>C bo'lib, nazorat variantiga nisbatan 87-114<sup>0</sup>C kam foydali harorat talab qilgan. Shuningdek, "Microzyme-1" preparatiga nisbatan "Mikroo'stirgich" preparati qo'llangan variantda foydali haroratlar yig'indisi 27<sup>0</sup>C kam bo'lgan (2-rasm).

Ekish me'yori gektariga 4 kg ga oshganda krotalariya donini to'liq pishishi 3 kunga kechikib, 42<sup>0</sup>C va ekish me'yori 8 kg/ga ga oshganda esa donni to'liq pishishi 8 kunga kechikib, 113<sup>0</sup>C miqdorida qo'shimcha foydali harorat talab qilgan. Krotalariya urug'iga ekish oldi turli biologik preparatlar qo'llanganda nazoart variantlariga nisbatan o'simlik doni 6-8 kun erta pishib yetilib, 87-114<sup>0</sup>C miqdorida foydali haroratni kam talab qilgan.

Ekinlardan mo'l hosil olish uchun yuqori assimilyatsiya yuzasiga ega bo'lgan barglarni yetishtirish kerak. Chunki, barg sathi yuqori bo'lsa, o'simlikda fotosintez yaxshi bo'ladi va natijada fotosintez mahsuldorligi ortadi. Bir tup krotalariya barg sathi maydoni o'simlik rivojlanishining 5-6 chinbarg fazasida 18,85-26,39 sm<sup>2</sup>; g'unchalash fazasida 404,0-1019,2 sm<sup>2</sup>; gullash fazasida 1615,0-3114,1 sm<sup>2</sup>; dukkaklash fazasida 2024,1-4770,0 sm<sup>2</sup>; pishish fazasida 2664,2-5342,4 sm<sup>2</sup> bo'lib, barcha ekish me'yorlarida krotalariya urug'i ekishdan oldin biologik preparatlar bilan ishlov berilgan variantlardan yuqori natijalar olingan. Dukkaklash fazasida bir tup o'simlikdagi barg sathi maydoni 2024,1-4770,0 sm<sup>2</sup> bo'lib, ekish me'yori oshib borishi bilan bir tup o'simlikdagi barg soni kamayishi hisobiga barg sathi maydoni 326,0-766,0 sm<sup>2</sup> gacha kamayib borgan bo'lsa, 1 gektar hisobida ko'chat soni oshishi hisobiga 14,62-16,78 ming m<sup>2</sup> gacha oshib borgan. Shuningdek, krotalariya urug'iga ekishdan oldin turli biologik preparatlar qo'llanganda bir tup o'simlikda barg sathi maydoni preparat qo'llanmagan nazorat variantiga nisbatan 1150,0-1980,0 sm<sup>2</sup> ga hamda "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan variantda "Microzyme-1" qo'llangan variantga nisbatan 830,0 sm<sup>2</sup> ga ortiq bo'ldi. O'simlik rivojining barcha fazalarida ham ushbu qonuniyat takrorlangani qayd etilgan.

Pishish fazasida bir tup o'simlikning quruq massasi aniqlanganda variantlar bo'yicha 117,4-143,4 g bo'lib, ekish me'yori oshib borishi bilan quruq massa miqdori kamayib borganligini hamda biologik preparatlar qo'llanganda oshib borganligi aniqlandi. Krotalariya urug'i gektariga 8,0 kg me'yorda ekilganda quruq massa miqdori 123,2-143,4 g ni; gektariga 12,0 kg me'yorda ekilganda 119,5-137,4 g ni; gektariga 16,0 kg me'yorda ekilganda esa 117,4-133,9 g ni tashkil etib, gektariga 8,0 kg me'yorda urug' ekilgan variantlarda yuqori bo'lib, preparat qo'llangan variantlarda quruq massa miqdori nazorat variantidan 8,9-20,2 g ga hamda "Mikroo'stirgich" biologik preparati qo'llangan variantda "Microzyme-1" qo'llangan variantga nisbatan 11,3 g ga ortiq bo'lgan.

Bargdagi xlorofill pigmenti miqdoriga ekish me'yori va biologik preparatlarni ta'siri aniqlanganda dukkaklash fazasida krotalariya gektariga 8,0 kg me'yorida turli biologik preparatlar qo'llanganda xlorofill pigmenti miqdori 59,2-62,7 ga teng bo'lib, nazorat variantiga nisbatan 2,3-3,5 ga ortiq bo'lgan bo'lsa,

“Mikroo‘stirgich” biologik preparati qo‘llangan variantda “Microzyme-1” qo‘llangan variantga nisbatan 1,2 ga ortiq bo‘lgan.

Tajriba natijalaridan olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, uch yilda o‘rtacha don hosildorligi variantlar bo‘yicha 10,0-19,0 s/ga bo‘lib, krotalariya urug‘i gektariga 12,0 kg me‘yorda ekilganda gektariga 8,0 kg me‘yorda ekilganga nisbatan 3,5-3,7 s/ga, gektariga 16 kg me‘yorda ekilganga nisbatan esa 3,7-3,8 s/ga qo‘shimcha don hosili olishga erishilgan. Don hosili krotalariya gektariga 8,0 kg me‘yorda ekilganda 10,2-15,3 s/ga bo‘lsa, gektariga 12 kg me‘yorda bo‘lganda 13,7-19,0 s/ga ni va ekish me‘yori 16 kg/ga bo‘lganda esa 10,0-15,2 s/ga ni tashkil etib, ekish me‘yori gektariga 4 kg ga oshirilganda don hosili 3,5-3,7 s/ga gacha oshib borgan bo‘lsa, ekish me‘yorini 8 kg/ga oshirilganda esa 0,1-0,3 s/ga gacha kamayib borgan.

### 1-jadval

#### Biologik preparatlar qo‘llash va ekish me‘yorlarini krotalariya don hosildorligiga ta’siri (2023-2025 yy.).


V/r	Krotalariya don hosildorligi, s/ga				Ekish me‘yoriga nisbatan qo‘shimcha hosil, s/ga	Biologik preparatlar qo‘llashga nisbatan qo‘shimcha
	2023 yil	2024 yil	2025 yil	O‘rtacha uch yilda		
1	7,5	12,3	10,8	10,2	-	-
2	11,6	15,5	12,8	13,3	-	+3,1
3	14,2	15,7	14,0	15,3	-	+5,1
4	14,2	13,9	13,0	13,7	+3,5	-
5	17,2	17,7	15,5	16,8	+3,5	+3,1
6	18,4	20,1	18,5	19,0	+3,7	+5,3
7	10,1	10,7	9,2	10,0	-0,2	-
8	12,2	14,4	12,4	13,0	-0,3	+3,0
9	14,3	16,8	14,5	15,2	-0,1	+5,2

	2023 yil uchun	2024 yil uchun	2025 yil uchun
<b>A faktor uchun</b>	EKIF <sub>05</sub> =0,28 s/ga S <sub>x</sub> =2,0 %	EKIF <sub>05</sub> =0,57 s/ga S <sub>x</sub> =4,1 %	EKIF <sub>05</sub> =0,58 s/ga S <sub>x</sub> =4,4 %
<b>V faktor uchun</b>	EKIF <sub>05</sub> =0,16 s/ga S <sub>x</sub> =1,2 %	EKIF <sub>05</sub> =0,33 s/ga S <sub>x</sub> =2,1 %	EKIF <sub>05</sub> =0,33 s/ga S <sub>x</sub> =2,5 %
	EKIF <sub>05</sub> =0,16 s/ga S <sub>x</sub> =1,2 % S <sub>x</sub> =2,1	EKIF <sub>05</sub> =0,33 s/ga S <sub>x</sub> =2,1 % S <sub>x</sub> =3,7	EKIF <sub>05</sub> =0,33 s/ga S <sub>x</sub> =2,5 % S <sub>x</sub> =4,3

Gektariga 12 kg me‘yorda ekilganda ko‘chat qalinligi hisobiga don hosildorligi oshgan bo‘lsa, gektariga 16 kg me‘yorda ekilganda ko‘chat qalinligi oshgani bilan bir tup o‘simlikda hosil shoxlarini, hosil elementlarini, 1000 dona don og‘irligini kamligi hisobiga kamaygan. Urug‘larga ekish oldi “Mikroo‘stirgich” biologik preparati bilan ishlov berilganda nazoratga nisbatan 5,1 – 5,3 s/ga miqdorida qo‘shimcha don hosili olishni ta‘minlagan (1-jadval).

Tajriba olib borilgan dalada avval bu yangi ekin ekilmagan bo‘lsa ham birinchi yildan barcha variantlarda o‘simlik ildizlarida tuganaklar mavjudligi kuzatildi. Krotalariya ildizidagi tuganaklar soniga ekish me‘yorini ta’siri kuzatilganda o‘simlikning ko‘chat qalinligi ortib borishi bilan bir tup o‘simlikdagi

